


## 2022- yilning yanvar-sentabrida Namangan viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 29 045,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-sentabr oyi bilan taqqoslaganda 7,2 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 113,5 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,6 % ga yetdi.




**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>23 867,4</b>	<b>29 045,6</b>	<b>107,2</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	23 253,9	28 158,2	107,0
mahsulotlarga sof soliqlar	613,5	887,4	115,3
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>23 253,9</b>	<b>28 158,2</b>	<b>107,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>9 325,2</b>	<b>10 882,5</b>	<b>104,7</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>5 095,3</b>	<b>6 445,6</b>	<b>109,4</b>
sanoat	3 371,7	4 379,7	109,1
qurilish	1 723,6	2 065,9	109,9
<b>xizmatlar</b>	<b>8 833,4</b>	<b>10 830,1</b>	<b>108,0</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 754,3	2 313,2	117,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 223,4	1 450,1	112,9
boshqa xizmat tarmoqlari	5 855,7	7 066,8	104,3

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 9 828,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,9 % ga yuqoridir.

## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 38,6 % ni, sanoat tarmog'i 15,6 % ni, qurilish 7,3 % ni va xizmatlar sohasi 38,5 % ni tashkil qildi.

## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2021- yil	2022- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,4	96,9
mahsulotlarga sof soliqlar	2,6	3,1
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>40,1</b>	<b>38,6</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>21,9</b>	<b>22,9</b>
sanoat	14,5	15,6
qurilish	7,4	7,3
<b>xizmatlar</b>	<b>38,0</b>	<b>38,5</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,5	8,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,3	5,1
boshqa xizmat tarmoqlari	25,2	25,2

## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 104,7 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 38,6 %), sanoatda – 109,1 % (15,6 %), qurilishda – 109,9 % (7,3 %), xizmatlar sohasida – 108,0 % ni (38,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 117,0 % (8,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,9 % (5,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,3 % (25,2 %) dan iborat bo'ldi.

## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,8 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 1,6 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,3 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 2,2 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,7 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 0,7 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,0 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 4,7 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 0,3 f.p.)ga ko'paydi

## 2022- yilning yanvar-sentabrida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-sentabrda YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 113,5 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida – 119,0 % va xizmatlar tarmog'ida – 113,5 % qayd etildi.

## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 72,4 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-sentabrda – 74,8 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

2021- yil

74,8 %

2022- yil

72,4 %